

## METOD VA METODIKA XAQIDA TUSHUNCHA

**Xusanova Dilrabo**

*Andijon Davlat pedagogika instituti matematika va infarmatika yo`nalishi 2 – bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:***Bu maqola ommaviy ochiq onlayn kurslarning afzalliklari , kamchilik va imkoniyatlari bilan tanishdik. Metod va Metodika haqida o`zimiz uchun kerakli bo`lgan bilimlarni yanada chuqur o`rgandik.*

**Kalit so`zlar:***kibernetik modellashtirish , kampyuter modellashtirish.*

Metod (yunonchadan olingan bo`lib . ‘metodos’ – bilish yoki tadqiqot yo`li , nazariya , ta`limot) – voqelikni amaliy va nazariy egallash , o`zlashtirish , o`rganish , bilish uchun yo`l yo`riqlar , usullar majmuasi , falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.

Metodlarning kelib chiqish tarixi kishilarning amaliy faoliyatiga borib taqaladi. Biror ishni bajarish Metodini egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson , tez va soz bajara oladi. Metodni egallamagan inson esa bu ishni bajarish uchun ko`p vaqt va kuch sariflaydi. Metod o`z mazmuni jihatidan amaliy yoki nazariy shaklda bo`lishi mumkin. Insonning amaliy faoliyatiga oid Metodlar ham voqelikka xos bo`lgan qonuniyatlarni anglab yetish , bilib olishga borib taqaladi. Metodlar haqidagi ta`limot fanda metodologiya deb ataladi . Inson dastlab atrofdagi narsa va hodisalarni kuzatish , ularni bir – biriga taqqoslash , o`xshatish , farq qilish asosida voqelik haqida bilimlarini to`plab brogan. Voqelik haqidagi fanlar rivojlanishi bilan fanlarda qo`llaniladigon yo`l – yo`riqlar , Metodlar ham takkomilashib brogan. Fanning amaliy (empirik) va nazariy Metodlari vujudga keldi.

Fan Metodlarning asosiy mazmunini amaliyotda sinalgan ilmiy nazariyalar tashkil etadi. Har qanday ilmiy nazariya mohiyati jihatidan Metod funksiyasiga egadir. Metod o`z navbatida , yangi ilmiy nazariyalar va qonuniyatlarining ochilishiga vosita bo`ladi. Shu nuqtai nazardan Metod bilan ilmiy nazariya funksiyasiga ko`ra , bir – biridan farq qiluvchi ilmiy amal hisoblanadi.

Falsafa va fanlar tarixida ilmiy Metodning mohiyatini tadqiq etish , yangi- yangi Metodlarni kashf etish alohida ahamiyatga egadir. Har qanday ilmiy kashfiyotlarga nisbatan olimning biror yangilikni kashf qilishda qo`llangan ilmiy Metodi ko`proq ahamiyatga egadir , chunki boshqa kashfiyotchilar ham shu olim qo`llagan ilmiy Metodga tayanib ko`plab kashfiyotlarni ochishi mumkin. Bilish Metodlari voqelikni qamrab olishi jihatidan 3 turga bo`linadi: yalpi umumiy bilish Metodlari – hamma fanlarda va bilishning barcha bosqichlarida ham qo`llaniladigon umumiy va universal Metodlar-metodologiya ; umumiy bilish Metodlari - bir qancha yoki barcha fanlarda qo`llaniladigon va bilishning muayyan bosqichi (empirik , nazariy yoki empiric bosqichdan nazariy bosqichga o`tish chegarasi)da qo`llaniladigon bilish Metodlar – ayrim fan doirasida qo`llaniladigon bilish Metodlari.

O`rta Osiyo olimlaridan Forobiy , Xorazmiy ,Beruniy ,Ibn Sino va boshqa fan Metodlarini rivojlantirganlar. Xorazmiy olimlarni uchga bo`lib , ularning bir qismini ilmiy kashfiyotlarini ochishda qo`llaniladigon yo`l – yo`riq va usullarini ishlab chiqib boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarini osonlashtiradi , deb yozganida , aynan shu Metodlarni ishlab chiquvchi olimlarni nazarda tutgan.Yaqin davir Yevropa faylasuf olimlari ham Metod taraqqiyotiga salmoqli hissa qo`shishdi.F.Bekon , G. Galiley , R. Dekart , G. Leybnits singari faylasuflar Metodlar haqida maxsus asarlar ham yozishdi.Hozirgi zamon fanlarida ko`plab umumiy , xususiy ilmiy Metodlar qo`llaniladi. Ayniqsa , keying asirda modellashtirish va matematik Metodlarning yangi shakillari rivojlandi , kibernetik modellashtirish va kompyuter modellashtirish Metodlari jamiyatning qariyb barcha sohalarida keng miqyosda qo`llanilmoqda. Zamonaviy ilmiy Metodlar tadqiqotchilarga dunyo sir – asrorlarini ochishda yordam bermoqda.

*AGAR BOLALAR ERKIN FIKIRLASHNI O`RGANMASA , BERILGAN TA`LIM SAMARASI PAST BO`LISHI MUQARRAR*

**ISLOM.ABDUG`ANIYEVICH.KARIMOV**

Ushbu ;Ta`lim metodlari' bo`limi ta`lim tizimida zamonaviy ta`lim metodlaridan foydalanish , o`quv jarayonida treninglar , yakka tartibda , juftlikda , kichik guruhlar va jamoada ishlashni tashkil qilgan holda ilg`or ta`lim metodlarini amaliyotga joriy qilish hamda pedagogik jarayonga yangicha yondashuv masalalariga bag`ishlangan.'Ta`lim metodlari ' bo`limida o`qituvchilarda global taffakur , kompetentik , professionallikni shakillantirish , nazariy va amaliy mashg`ulotlar , mustaqqil ta`lim turlari bo`yicha bilim , ko`nikma va malakalarni rivojlantirish , ulardan o`z pedagogic faoliyatlarida samarali foydalanishlarini ta`minlash ko`zda tutilgan.

#### **HOZIRGI TA`LIM METODLARINING ASOSIY TURLARI**

Hozirda amaliyotda qo`llanilayotgan ta`lim metodlari xilma – xil hamda ko`p sonli bo`lib ularning har biri o`ziga xos xususiyatlarga , ta`lim – tarbiyaviy imloniyatlarga ega , muayyan maqsadlarga , sharoitlarga mos ekanligi va boshqa sifatlari bilan bir – biridan farqlanadi. Bundan ko`rinib turibdiki , bu metodlarning har biri muayyan ta`lim – tarbiyaviy maqsadlar uchun mos bo`lib , uning o`rniga boshqa metodni qo`llash maqsadga muvofiq emas. Chunki boshqa metod ushbu maqsad uchun mos emas ekanligi ma`lum.Shu sababli ta`lim metodlarining qaysinisidan qaysi maqsad uchun foydalanish ko`zda tutilgan samarani berishini bilish muhim ahamiyatga ega.Lekin bu masala hozirgacha to`liq o`rganilgan emas. Bu masala avvalo ta`lim metodlarini ma`lum belgilariga ko`ra turlarga ajratib olish va ularning asosiy xarakteristiklarini aniqlashni talab qiladi. Shuni xisobga olgan holda zamonaviy ta`lim metodlarining turlarga ajratish dolzarb masaladir. Buni hal qilish uchun zamonaviy ta`lim metodlarining turlarga ajratish uchun zarur bo`lgan asosiy belgilarni aniqlab olish lozim.Bu belgilar quyidagilar bo`lishi mumkin;

Bajaradigon vazifasiga , ko`zda tutiladigon natijaga, ta`limiy va tarbiyaviy maqsadlarga , pedagogic va psixologik yo`nalishlarga , ta`lim oluvchilarning yoshiga muvofiqligiga , ayrim fanlarni (ijtimoiy , tillar, tabiiy, aniq, amaliy, va boshqa fanlarni )o`qitishga , nazariy va amaliy bilim , ko`nikma va malakalarni o`rgatishga , o`zlashtirishni nazorat qilishga tegishli va boshqa belgilar.

O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligining 2011 yil 4 – iyuldagi 144 – sonli buyrug`iga 11 – ilova

Umumiy o`rta ta`lim maktabi fan metod birlashmalari to`g`risida

### **NIZOM**

Mazkur Nizom ta`lim muassasidagi fan va yo`nalishlar bo`yicha metod birlashmalarini tashkil etish va ularning amalga oshiradigon faoliyat mazmunini belgilaydi.

METODIKA (yunonchadan olingan bo`lib methodike – biror ishni bajarish , amalga oshirish , ado etish metodlarining yig`indisi.)

O`qitish usullari haqidagi ta`limoti.

Uzbek tili metodikasi . Rus adabiyoti metodikasi .

Metodika tushunchasi yurtimizda ilmiy doirada keng qo`llanilib kelinadi . Bundan tashqari u bilan yonma – yon usul , uslub kabi o`zbekcha muqobillari ham ishlatiladi. Bizning nazarimizda ilmiy doirada xalqaro so`z bo`lgan METODIKA atamasi qo`llangani maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan qarashlarimizda metodika so`zidan foydalanamiz.

Respublikamizda Chet tillari metodikasi bilan shug`ullanuvchi asosiy institute O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi Chet tillarini o`qitishning innovatsiyaviy metodlarini rivojlantirish respublika ilmiy – amaliy . markazi hisoblanadi. Bundan tashqari ‘O`zbekistonda xorijiy tillar ‘ nomli ilmiy – metodika elektiron jurnal hamda internet portal faoliyat yuritib kelmoqda . Portalda chet tillarini o`qitish va o`rganishga doir materiallar bilan tanishishingiz mumkin.

Metodika (fan sifatida )- xususiy fanlarni o`qitishning o`ziga xos xususiyatlarini o`rganadi.

Metodika – ta`lim tizimida quyidagi predmetning ahamiyati va o`rni , uning vazifalari va ta`lim mazmunini aniqlab beradi. Shu predmet yuzasidan ta`lim usullari, shakillari va vositalaridan qanday foydalanish va boshqarilishiga izoh keltiradi.

Darslarni samarali tashkil etishda foydalaniladigon o`yinlar;

Mundarija ;

- 1.‘Baliq ovi’ o`yini.
- 2.‘Raketa’o`yini.
- 3.‘To`g`ri noto`g`ri’ o`yini.
- 4.‘Xotira mashiqi’ o`yini.
- 5.‘Bo`g`in’ o`yini.
- 6.‘Mo`jizalar maydonchasi’ o`yini.
- 7.‘Maqol ‘ o`yini.
- 8.‘So`zdan so`z yasash’ o`yini.

9. 'Ustunchalar' o'yini.

10. 'Kim g'olib' o'yini.

1. 'Baliq ovi' o'yini; Doskaniing bir tomoniga dengiz rasimi, ikkinchi tomoniga akvarium rasimi tushiriladi. Dengizda baliqlar bo'ladi. O'quvchi dengizdagi baliqlardan birini tutib uni orqa qismidagi savollarga javob beradi. Javob to'g'rib o'lsa baliqni akvariumga, noto'g'rib bo'lsa dengizga qo'yib yuboradi.

2. 'Raketa' o'yini; Doskaga raketa rasimi chiziladi, yoki, uchta raketa yasab savollar yoziladi kartochkalar ilinadi, Raketa o'zga sayyoraga uchish uchun yuklardan xoli bo'lishi kerak o'quvchila uch guruhga bo'linadi, qaysi guruh a'zolarisavollarga to'g'ri javob bersa kartochkalar olib tashlanadi, to'g'ri javob berilmagan kartochka raketada qoladi va u ucha olmaydi.

3. 'To'g'ri – noto'g'ri' o'yini; O'qituvchilar savollarni an'anaviylikdan qochgan xolda berishlari mumkin. Berilgan savolga o'quvchi faqat to'g'ri yoki noto'g'ri deb javob beradi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi 1998 – yil 21 – oktyabrda berilgan – to'g'ri.

4. 'Xotira mashiqi' o'yini; Hozirjavoblik va zukkolikni oshirish maqsadida, ayniqsa birinchi tanishuv darsida qo'llash mumkin bo'lgan o'yin. O'quvchi o'z ismini aytadi va shu ism bilan boshlanuvchi biror adib ismini aytadi.

5. 'Bo'g'in' o'yini; O'quvchilarning tezkor fikirlashi so'z boyligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bunda birinchi aytilgan so'zning oxirgi bo'g'imi keying so'zning birinchi bo'g'imiga to'g'ri kelishi kerak bo'ladi.

6. 'Mo'jizalar maydonchasi' o'yini; O'quvchilarning o'rniga qarab uch guruhga ajratib olinadi va har bir guruhga alohida o'tilgan mavzular yuzasidan savol beriladi har bir guruhdan savolga birinchi bo'lib javob bergan uch o'quvchini doskaga taklif qilinadi. O'qituvchi doskaga o'tilgan mavzuga aloqador atamaning hariflariga teng katakchalar chizadi birinchi chiqqan o'quvchi o'zi istagan katakchani harifini ochadi. Agar birinchi ochilgan katakchadayoq qaysidir o'quvchida javob tayyor bo'lsa javobni aytish, yoki keying o'quvchi boshqa katakchani ochib o'yinni davom ettirishi mumkin.

7. 'Maqol' o'yini; o'quvchilarni rag'batlantirish va maqollarni bilish darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. O'qituvchii o'yin shartini aytmagan holda talabgor o'quvchilarni doskaga taklif qiladi, o'quvchilar istaganicha doskaga chiqishlari mumkin o'qituvchi birinchi o'quvchiga bejirim karopka beradi, o'quvchi maqol aytib keying werigiga uzatadi maqol aytolmagan yoki aytilgan maqolni aytib qo'ysa o'quvchi o'rniga o'tirade o'yin bitta o'quvchi qolguncha davom etadi. Oxiri qolgan o'quvchi g'olib bo'ladi va o'qituvchi tayyorlagan sovg'ani oladi.

8. 'So'zdan so'z yasash' o'yini; bu o'yin o'quvchilarni so'z boyligini oshirishga, qayta xotirlashga va mantiqan fikirlashni kengaytirishga undaydi, yozuv taxtasiga o'qituvchi bir soz yozib qoyadi shundan song oqituvchi ma'lum vaqt davomida ana shu soz hariflaridan foydalangan holda boshqa so'z yasashlarini aytadi, belgilangan vaqtdan kigin qaysi o'quvchi ko'proq so'z yoza olgan bo'lsa shu o'quvchi g'oliblikni qo'lga kiritgan bo'ladi.

9. 'Ustunchalar' o`yini ; yaqin o`tgan mavzularni qayta xotirlash va mustahkamlash , chaqqonlik va tez fikirlay olish qobilyatini o`stirish uchun ayni qo`l keluvchi o`yindir, o`quvchilar daftar varog`ini istagingizga qarab 2,3,4 yoki 5ta ustunchaga bo`lishadi. Ustunchalar boshiga mavzu nomi yoziladi. Har bir ustunchaga 5 tadan yoki 7 tadan mavzuga oid atama yozish kerak bo`ladi. birinchi bo`lib bo`lgan uch o`quvchini yozuv taxtasiga taklif qilinadi. ular barchasini to`g`ori va bexato bajarishgan bo`lsa qo`shimcha baxo bilan siylashingiz mumkin.

10. 'Kim g`olib ' o`yini ; ushbu o`yin o`quvchilarni o`tilgan mavzu yuzasidan olgan bilimlarini yanada mustahkamlashga yordam beradi. o`quvchilarni 2 guruhga bo`lasiz va nomlaysiz . ularga o`tilgan mavzu yuzasidan ketma – ket ma`lumot aytishlarini aytasiz va tayyorgarlik ko`rishlari uchun vaqt ajratasz. Qaysi guruh azolari mavzu yuzasidan ko`proq va mazmunli ma`lumotlar aytgan bo`lsa g`olib deb e`lon qilasiz.

O`z fanini sevuvchi o`qituvchilar darsni tashkil etishda o`quvchilar qiziqishini oshirish va darslarni jonlantirish uchun turli metod va o`yinlardan foydalaniladi. O`yin asosida olib borilgan mavzular esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi . qolaversa , o`quvchilar ham noodatiy darslarni yaxshi ko`radilar.